

SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№7 (3) 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL



ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: <https://scienceproblems.uz>

DOI: 10.47390/SCP1342V3I7Y2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 7 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Usmonov Axrorjon Rustamjon o'g'li*
AMALIY SAN'AT BILAN BOG'LIQ NOMODDIY MADANIY MEROSLAR 9-15
- Зоҳидов Қобилжон Тоиржонович*
ИЛК АРАБ-МУСУЛМОН ДАВЛАТ БОШҚАРУВИДА МАДИНА ШАҲРИНИНГ ЎРНИ 16-20
- Siddiqov Mirshod Baxtiyorovich*
SOVET HOKIMIYATINING QORAQALPOG'ISTON ASSRDA IJTIMOIIY TA'MINOT
SIYOSATI 21-26
- Хайназаров Баҳромжон Бахтиёрович*
КАСПИЙОРТИ ВИЛОЯТИДА ТУБ БЎЛМАГАН АҲОЛИ ЭҲТИЁЖЛАРИ УЧУН ТАЪЛИМ
ТИЗИМИНИНГ ЖОРИЙ ЭТИЛИШИ ТАРИХИДАН
(XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИ) 27-32
- Мансуров Музаффаржон Шарифжон ўғли*
СОВЕТ ҲОКИМИЯТИ ЙИЛЛАРИДА МАДАНИЙ ТАДБИРЛАРНИНГ ТУРИЗМ ТАРҒИБОТИДА
ТУТГАН ЎРНИ 33-41
- Bobodustov Bobur Mirzaboyevich*
ZARAFSHON DARYOSIDAGI SUV AYIRG'ICH TIZIMLARINI TA'MIRLASHGA ROSSIYA
IMPERIYASI MA'MURIYATINING MUNOSABATI 42-47
- Саидбобоева Гулзора Нематжоновна*
XX АСРНИНГ 30–50-ЙИЛЛАР ДАВРИЙ МАТБУОТ МАТЕРИАЛЛАРИ – РЕСПУБЛИКАНИ
ЭЛЕКТРЛАШТИРИШГА ОИД МАНБА 48-55

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

- Казаков Олим Сабирович*
ЕТАКЧИЛИК ТАЪСИРИДА БОШҚАРУВНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ 56-60
- Utkirov Abbos Meyliyevich*
CHALLENGES IN IMPLEMENTING TQM IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS 61-67
- Umronov Eldorbek Sodirovich*
TURISTIK KORXONALAR DOIRASIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA
RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI 68-76
- Норбоев Аллаёр Исмоилович, Тулкинов Гайрат Кадинович*
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И НАПРАВЛЕНИЯ МЕНЕДЖМЕНТА В РАЗВИТИИ МОЛОДЁЖНОГО
ТУРИЗМА 77-82
- Xolmurotov Fozil Saribayevich*
MINTAQADA AHOLI TURMUSH FARAVONLIGINI OSHIRISHDA QISHLOQ XO'JALIK
MAHSULOTLARINI YETISHTIRUVCHI SUBYEKTLAR RO'LINI BAHOLASH 83-91
- Худайназарова Дилором Хайруллаевна*
ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИ КОРХОНАЛАРИНИНГ ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ ДОИРАСИДАГИ
РИСКЛАРИНИ СТРАТЕГИК ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ИСТИҚБОЛЛАРИ 92-100

Гойипназаров Санжар Баходирович
СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТНИ ЖОРИЙ ЭТИШ НАТИЖАСИДА МЕХНАТ БОЗОРИДАГИ
ЎЗГАРИШЛАР101-110

Baxtiyorov Asrorbek Azizjon o'g'li
BANK MENEJMENTI ASOSLARI, UNING IQTISODIY MOHIYATI111-119

09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Юлдашев Фаррух Абдурахманович
АХБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТДА ЭХТИЁЖ ВА МАНФААТЛАРНИНГ ЎЗАРО УЙҒУНЛИК
ХУСУСИЯТЛАРИ120-126

Тожибоев Сарвар Пулатжон ўғли
ДАВЛАТ ХИЗМАТИ ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ ВА УНИНГ ҲУҚУҚИЙ
АСОСЛАРИ127-132

Ismatov Shohruhbek Murod o'g'li
YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOY DAVLAT BARPO ETISH VA UNING G'OYAVIY MAFKURAGA
ASOSLARI133-137

Abdullayev Temur Bobir o'g'li
TIL VA TAFAKKUR DIALEKTIKASINING BILISH JARAYONIDAGI ROLI138-143

Islamov Kamol Tashkulovich
UYG'ONISH DAVRI DUNYOQARASHIDA DINIY VA DUNYOVIY YONDASHUVLAR
NISBATI 144-150

10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Isanova Feruza Tulqinovna
O'ZBEK TILI XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARINING FUNKSIONAL
XUSUSIYATLARI151-160

Ro'ziyev Elbek O'rol o'g'li
AMIR TEMUR VA TEMURIY HUKMDORLAR YORLIQLARIDA SIYOSIY NUTQ SHAKLLARINING
QO'LLANILISHI161-167

Мухамедова Феруза Баходир кизи
ФОРМИРОВАНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ СИСТЕМЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ
А. КИМА.....168-174

Abdullayev Ikramjon Xashimdjanoich
TILSHUNOSLIKDA SO'Z VA SO'Z TURKUMLARI: TADQIQI VA TAVSIFI175-180

Tagayeva Sayyora Ulashovna, Inoyatillo Ozoda
FIZIKA FAKULTETI TALABALARIGA NEMIS TILINI O'QITISHDA INNOVATSION
METODLARINING QO'LLANILISHI181-185

Egamberdiyeva Mohidil Gulomjon qizi
MADANIYATLARARO MULOQOTDA NUTQIY ETIKETNING ANTROPOSENTRIK
TADQIQI186-190

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР

- Жавлиев Нурали Баходирович*
МАЪМУРИЙ-ҲУҚУҚИЙ НИЗОЛАР ТУШУНЧАСИ ВА МАЗМУН-МОҲИЯТИ191-195
- Узакова Гўзал Шариповна*
БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШ МАҚСАДЛАРИГА ЭРИШИШДА СУВ РЕСУРСЛАРИДАН
ОҚИЛОНА ФОЙДАЛАНИШ (ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ).....196-204
- Usmanov Alisher Tolmasovich*
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MA'MURIY HUQUQBUZARLIK TO'G'RISIDAGI ISHLARNI
YURITISHNING SODDALASHTIRILGAN TARTIBI: MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR205-213
- Авезова Элеонора Парахатовна*
РАВНОЕ ПРАВО ГРАЖДАН НА ПОСТУПЛЕНИЕ В ГОСУДАРСТВЕННУЮ ГРАЖДАНСКУЮ
СЛУЖБУ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН214-218
- Мукумов Бобур Мелибой угли*
ОЦЕНКА РЕГУЛИРУЮЩЕГО ВОЗДЕЙСТВИЯ ПРОЕКТОВ НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫХ
АКТОВ ПО ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ТЕХНОЛОГИЙ БЛОКЧЕЙН. СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ
.....219-224
- Туракулова Назира Абдишукуровна*
СТАРТАП ЛОЙИҲАЛАРИНИ ТУЗИШ ВА МОЛИЯЛАШТИРИШ ТАРТИБИ:
ДАВЛАТ ВА НОДАВЛАТ НУҚТАИ НАЗАРИДАН225-232

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

- Хўжамкелдиев Гафур Султон ўгли*
СПОРТ МАШҒУЛОТЛАРИ ЖАРАЁНЛАРИДА ТИКЛАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ233-237
- Aziz Hasanovich Rajabiy*
BO'LAJAK VOKAL O'QITUVCHILARINING INTELLEKTUAL-IJODIY FIKRLASH QOBILIYATINI
RIVOJLANTIRISH238-242
- Malikova Sevar Samatovna*
BO'LAJAK XOR RAHVARLARINING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH243-246
- Васильченко Ольга Анатольевна*
ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ ВОКАЛЬНО-ХОРОВЫХ НАВЫКОВ247-251
- Хојитуроdова Маhлийохон Kenjavoy qizi, Inomov Faxriddin O'rmonjonovich*
AN INNOVATIVE APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' MOVEMENT SKILLS
AND COMPETENCIES IN PHYSICAL EDUCATION CLASSES252-257
- Асадуллаева Наргиза*
БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА ФАОЛ ФУҚАРОЛИК КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ
МУСТАҲҚАМЛАШГА ҚАРАТИЛГАН ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ЖАРАЁННИ
РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ258-265
- Mamadova Feruzaxon Mirzaaxmad qizi*
BO'LAJAK JISMONIY MADANIYAT MUTAXASSISLARINING PEDAGOGIK MADANIYATI VA
KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK MODEL I266-272

<i>O'ktamova Navruza Botir qizi</i> BO'LAJAK JURNALISTLARGA INGLIZ TILINI O'QITISHDA SOTSIOLINGVISTIK KOMPETENSIYANI TAKOMILLASHTIRISH (SIYOSIY-IJTIMOIIY MATNLAR MISOLIDA)	273-277
<i>Humonjonov Shoxzodbek Dilshodjon ўғли</i> ОЛИЙ ТЕХНИКА ТАЪЛИМИДА МЕХНАТ МУҲОФАЗАСИ ВА ТЕХНИКА ХАВФСИЗЛИГИ ҚОИДАЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ЭЛЕКТРОН МЕТОДИК АСОСЛАРИНИНГ ИЛМИЙ АҲАМИЯТИ	278-287
<i>Xuramov Ilxom Panjiyevich</i> PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN ISLOHOTLARNI JADALLASHTIRISH VA KASBIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH	288-292
<i>Azizbek Umarov</i> MEDIATA'LIM – TALABALARNING MEDIA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN FAN TARMOG'I SIFATIDA	293-299
<i>Saidova Zilola Gadoymurodovna</i> TA'LIM INTEGRATSIYASINING AYRIM MASALALARI	300-307
<i>Raxmonova Gulrux Ulashevna</i> O'ZBEK XALQINING MILLIY HARAKATLI O'YINLARIDAN JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	308-312
<i>Boynazarova Sayyora Ruzikulovna</i> BIOLOGIYA O'QITUVCHISI KASBIY KOMPETENSIYALARI VA KOMPETENTLIGINI MONITORING QILISHNING MAVJUD METODIKASI VA UNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	313-317
<i>Shermuhammadov Bahodirjon, Xasanova Ozodaxon Qurvonali qizi</i> MDH OLIMLARI TOMONIDAN CHET TILLARNI O'RGANISHDA UCHRAYDIGAN XATOLAR MAVZUSIDA OLIB BORGAN TADQIQOTLAR TAHLILI	318-323
<i>Abdusalimova Nargizaxon Olimjon qizi</i> MAKTAB TA'LIM TIZIMIDA STEAM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB FIZIKA DARSLARINI TASHKIL ETISHNING AFZALLIKLARI	324-329
<i>Shafiyeva Elnara, Murotmusaev Komiljon Buribaevich</i> THE CHARACTERISTICS OF MENTAL HEALTH IN ELDERLY PEOPLE	330-349

12.00.00-Юридик фанлар

Usmanov Alisher Tolmasovich
O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
Boshqarma boshlig'ining o'rinbosari
alisherusmanovalibi@umail.uz

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MA'MURIY HUQUQBUZARLIK TO'G'RIDAGI ISHLARNI YURITISHNING SODDALASHTIRILGAN TARTIBI: MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR

Annotatsiya. O'zbekiston Respublikasida ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risida yagona elektron ish yurituv tizimi orqali huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni elektron shaklda yuritish tartibi amaliyotga joriy etildi. Maqolada ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni soddalashtirilgan tartibida yuritishda amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, Raqamli O'zbekiston, axborot ta'minoti, huquqbuzarliklar profilaktikasi, ma'muriy huquqbuzarlik, yagona elektron ish yurituv, soddalashtirilgan tartib, planshet, jamoat tartibi, jarima.

Usmanov Alisher Tolmasovich
Deputy head of the Department of the
National guard of the Republic of Uzbekistan

SIMPLIFIED PROCEDURE FOR ADMINISTRATIVE VIOLATION PROCEEDINGS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN: PROBLEMS AND SUGGESTIONS

Abstract. In the Republic of Uzbekistan, the procedure for conducting cases of administrative offenses in electronic form through a unified electronic system of administrative offenses has been introduced. The article presents the problems that arise in practice in the conduct of proceedings on cases of administrative offenses in a simplified manner and proposals for their elimination.

Keywords: digital economy, Digital Uzbekistan, information support, crime prevention, administrative offense, unified electronic proceedings, simplified procedure, tablet, public order, fine.

Усманов Алишер Толмасович
Заместитель начальника управления
Национальной гвардии Республики Узбекистан

УПРОЩЕННЫЙ ПОРЯДОК ПРИ ВЕДЕНИИ ПРОИЗВОДСТВА ПО ДЕЛАМ ОБ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ПРАВОНАРУШЕНИЯХ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ПРОБЛЕМЫ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Аннотация. В Республике Узбекистан внедрен порядок ведения дел об административных правонарушениях в электронной форме через единую электронную систему административных

правонарушений. В статье приведены возникающие на практике проблемы при ведении производства по делам об административных правонарушениях в упрощенном порядке и предложения по их устранению.

Ключевые слова: цифровая экономика, Цифровой Узбекистан, информационное обеспечение, профилактика правонарушений, административное правонарушение, единое электронное производство дел, упрощенный порядок, планшет, общественный порядок, штраф.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SCP1342V3I7Y2023N28>

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi davom etmoqda.

Respublikada milliy iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek, 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan manfaatdor vazirlik va idoralar ishtirokida ishlab chiqilgan «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan 2020 yilda tasdiqlangan [2].

Ushbu Farmon bilan axborotlashtirish sohasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, axborot tizimlarini rivojlantirish va takomillashtirish, milliy axborot tizimlarini yaratishni taqozo etdi.

Axborot ta'minoti, ishonchli ma'lumotlarning uzluksiz to'planishi, ma'lumotlarning sifatli tahlil qilinishi hozirgi sharoitda barcha huquqni muhofaza qilish organlari, shu jumladan ichki ishlar va Milliy gvardiya organlari faoliyatining muhim shartlaridan bir hisoblanadi.

“Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish uchun statistika ma'lumotlari yagona tizimini yanada takomillashtirish, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarning yagona markazlashtirilgan hisobini yuritish maqsadida 2018 yilda “Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar va jabrlanuvchilarni markazlashtirilgan hisobga olish tizimini takomillashtirish to'g'risida” [3], 2020 yilda esa “Huquqbuzarliklarning oldini olishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida [4]” Vazirlar Mahkamasining Qarorlari qabul qilindi.

«Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirilgan islohotlarning mantiqiy izchilligini ta'minlash, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar yurituvini raqamlashtirish, jumladan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali mazkur ishlarni ko'rib chiqishda ortiqcha sansalorlikka yo'l qo'yilishining oldini olish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan tegishli qarorlar qabul qilinib, «Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida yagona elektron ish yurituv» loyihasi bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etila boshlandi.

Ushbu loyihani amalga oshirish davomida ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni qo'zg'atish, ko'rib chiqish va bayonnoma tuzishga vakolatli organlar, sudlar va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi, shuningdek, boshqa tashkilotlarning elektron axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalari integratsiyalashtirildi, ma'muriy huquqbuzarlikka oid ish yuritishda foydalaniladigan protsessual hujjatlarning

yagona elektron bazasi shakllantirildi, ma'muriy huquqbuzarlikka oid ishlarni yuritishda ortiqcha bosqichlarni bekor qilish va muddatlarni qisqartirish orqali ish yuritish tartibini soddalashtirildi, avtomatlashtirilgan daktiloskopik taqqoslash tizimi, shaxsni identifikatsiya qilishning avtomatlashtirilgan tizimi hamda Biometrik pasport tizimi modernizatsiya qilindi.

Amalga oshirilgan tadbirlar davomida, birinchi navbatda Toshkent shahrida, keyinchalik butun respublika hududida ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishning soddalashtirilgan tartibi joriy etilib, uning natijasida:

vakolatli mansabdor shaxs huquqbuzarlikni aniqlashi bilan birgalikda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni rasmiylashtirish va ko'rib chiqish uchun maxsus dasturiy ta'minot o'rnatilgan mobil qurilma — planshet orqali ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomani tuzishi va huquqbuzarga axborot-telekommunikatsiya tarmog'i orqali bayonnomaning elektron yoki qog'oz shaklini taqdim etish;

bayonnomani tuzuvchi mansabdor shaxs huquqbuzarning biometrik hujjatlarini planshet yordamida real vaqt rejimida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi bazasidan uning shaxsini aniqlash;

huquqbuzar bayonnomada ko'rsatilgan ma'muriy huquqbuzarlikni o'zi sodir etganligiga e'tiroz bildirmagan taqdirda, bayonnomani planshetdagi maxsus skanerlovchi uskuna orqali barmoq izlarini tushirish yo'li yoki elektron grafik imzosi bilan tasdiqlash imkoniyatlari yaratildi.

Shu bilan birga, quyidagi holatlarda:

ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishning soddalashtirilgan tartibda yuritilishiga huquqbuzarning e'tirozi bo'lganda;

sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarlik uchun belgilangan sanksiyada jarima jazosidan boshqa turdagi ma'muriy jazo qo'llanilishi nazarda tutilganda;

ish bo'yicha moddiy va ma'naviy zarar ko'rgan taraf yoki uning vakili zararni undirishni talab qilganda;

ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan bir necha shaxslardan loaqal bittasi huquqbuzarlik sodir etganligini rad etganda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar soddalashtirilgan tartibda yuritilmasligi belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-son Farmoni bilan tasdiqlangan «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasi doirasida 2020 — 2022 yillarda transport, qurilish, uy-joy kommunal xo'jaligi va boshqa sohalarni raqamli transformatsiya qilish dasturida “Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar yurituvini raqamlashtirish maqsadida “Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida yagona elektron ish yurituv» tizimini amaliyotga joriy etish” chora-tadbirlari belgilanib, 2020 yil oktyabr oyida axborot tizimini joriy etish bo'yicha loyiha-texnik hujjatlarini ishlab chiqish, o'rnatilgan tartibda ekspertizadan o'tkazish, 2021 yil yanvar oyida axborot tizimini ishlab chiqish hamda boshqa axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalariga integratsiyalash, 2021 yil yanvar oyida axborot tizimini amaliyotga joriy etish, 2021 yil noyabr oyida loyihani respublikaning boshqa hududlarida qo'llash bo'yicha takliflarni ishlab chiqish vazifasi qo'yilgan edi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish davomida “Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritishning elektron tizimini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar haqida” Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilindi [5].

Qaror bilan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risida yagona elektron ish yurituv tizimini — «E-ma'muriy ish» tizimini tashkil etish, uning sifatli va uzluksiz faoliyat ko'rsatishini ta'minlash, shuningdek, ma'muriy bayonnoma tuzishda, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishda vakolatli davlat organlarining tizimdan samarali foydalanishlarini ta'minlash bo'yicha mas'ul organ etib belgilandi, "Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida yagona elektron ish yurituv tizimi orqali ma'muriy huquqbuzarlikka oid ishlarni yuritish tartibi haqida nizom" tasdiqlandi.

Nizom qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma'muriy huquqbuzarliklar yuzasidan ish yuritish va tegishli jazo choralarini qo'llash vakolatiga ega bo'lgan davlat organlarining Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risida yagona elektron ish yurituv tizimi — «E-ma'muriy ish» tizimi orqali huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni elektron shaklda yuritish tartibini belgilab, 6ta bob va 76ta banddan va 3ta ilovadan iborat.

O'zbekiston Respublikasida 2023 yil boshidan 22 may kuniga qadar **1 422 246** nafar shaxslar ma'muriy javobgarlikka tortilganlar [6]. Shulardan **150 403** nafari -Transport vositalaridan foydalanish qoidalarini buzish **125-moddasi; 291 757** nafari - Haydovchilarning transport vositalarini piyodalar yo'lklaridan yurgizishi, yo'l belgilari va yo'l harakatining boshqa qoidalari talablariga rioya etmasligi **128-moddasi; 30 543** nafari - Piyodalar va yo'l harakati boshqa ishtirokchilarining yo'l harakati qoidalarini buzishi **138-moddasi; 59 687** nafari - Jamoat joylarida alkogol mahsulotini iste'mol qilish **187-moddasi; 11 159** nafari - Yong'in xavfsizligi qoidalarini buzish **211-moddasi; 132 317** nafari - Pasport tizimi qoidalarini buzish **223-moddasi** bo'yicha javobgarlikka tortilgan [7].

Yuqorida keltirilgan huquqbuzarliklar MJtKning turli boblariga, ya'ni transportdagi, yo'l xo'jaligi va aloqa sohalaridagi huquqbuzarliklarga, jamoat tartibiga va boshqaruvning belgilangan tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklarga tegishli bo'lsada, ularning bir umumiy elementi bor. Bu ularning sanksiyasida belgilangan huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga nisbatan qo'llaniladigan jarima miqdoridir. Ushbu moddalarning sanksiyalarida, huquqbuzarga solinadigan jarima bazaviy hisoblash miqdorining ikkidan bir qismidan oshmagan miqdori belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 283-moddasida [8] (Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzilmaydigan hollar) fuqaro o'zi sodir etgan huquqbuzarlik faktiga e'tiroz bildirmasa hamda unga joyning o'zida solinadigan jarimaning miqdori bazaviy hisoblash miqdorining ikkidan bir qismidan oshmasa, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzilmasligi, jarima to'laganligi to'g'risida aybdorga belgilangan shakldagi kvitansiya berilishi belgilangan. 334-moddasida (Joyning o'zida undirib olinadigan jarima solish to'g'risidagi qarorni ijro etish) jarima ma'muriy huquqbuzarlik sodir qilingan joyning o'zida undirib olingan taqdirda huquqbuzarga qat'iy moliyaviy hisobot hujjati hisoblangan belgilangan nusxadagi kvitansiya berilishi, jarima ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan joyning o'zida to'lanmasa, ishni ko'rib chiqish va qarorni ijro etish MJtKda nazarda tutilgan tartibda amalga oshirilishi ta'kidlangan.

Lekin, "Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida yagona elektron ish yurituv tizimi orqali ma'muriy huquqbuzarlikka oid ishlarni yuritish tartibi haqida nizom"ning [5] 20-bandida faqat belgilangan shakldagi ma'muriy bayonnoma va ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qaror ma'muriy ishlarni yuritishda hisobga olish elektron hujjatlari hisoblanishi ta'kidlanib, belgilangan shakldagi kvitansiya ma'muriy ishlarni yuritishda hisobga olish elektron hujjati

sifatida qayd etilmagan. 26-bandida vakolatli organlar tomonidan huquqbuzarga nisbatan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi talablari buzilganligi haqida belgilangan shakldagi ma'muriy bayonnoma yoki ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qaror huquqbuzarlik sodir etilgan joyning o'zida planshet yordamida «E-ma'muriy ish» tizimi orqali rasmiylashtirilishi, 27-bandida joyning o'zida solinadigan jarimaning miqdori bazaviy hisoblash miqdorining ikkidan bir qismidan yuqori bo'lsa ma'muriy ishlar soddalashtirilgan tartibda yuritilmasligini qayd etish bilan cheklanilgan. Fuqaro o'zi sodir etgan huquqbuzarlik faktiga e'tiroz bildirmasa hamda unga joyning o'zida solinadigan jarimaning miqdori bazaviy hisoblash miqdorining ikkidan bir qismidan oshmasa, «E-ma'muriy ish» tizimiga qanday hujjatlar yuklanishi yoxud «E-ma'muriy ish» tizimi orqali qat'iy moliyaviy hisobot hujjati hisoblangan kvitansiyaning fuqaroga yetkazish yoki chop etish masalasi yoritilmagan. Nizomning biror bir bandida joyning o'zida solinadigan jarimani undirish va tizimga yuklanishi kerak bo'lgan hujjatlar haqida yo'riqlar berilmagan.

Vaholanki, «Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar va ma'muriy huquqbuzarlik yo'li bilan ma'naviy, jismoniy yoki mulkiy zarar yetkazilgan shaxslarni markazlashtirilgan hisobga olish tartibi to'g'risida nizom»ning [3] 9-bandida ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan (bayonnoma tuzilmasdan) shaxslarni hisobga olish kartochkasi - hisobga olish hujjati hisoblanib, uning shakli Nizomning 2-ilovasida keltirilgan. Ushbu kartochkada

ishni ko'rib chiqqan organning nomi;

huquqbuzarlik sodir etilgan joy;

ishni ko'rib chiqqan shaxsning F.I.O. va lavozimi;

huquqbuzarlikning kvalifikatsiyasi;

jarima miqdori;

huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsning F.I.O.;

ish ko'rib chiqilgan sana va ko'rib chiqqan shaxsning imzosi va boshqa rekvizitlar to'ldirilishining majburiyligi qayd etilgan.

«Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida yagona elektron ish yurituv tizimi orqali ma'muriy huquqbuzarlikka oid ishlarni yuritish tartibi haqida nizom» talablaridan hamda 20-bandida faqat ikki xil hujjat ma'muriy ishlarni yuritishda hisobga olish elektron hujjatlari hisoblanib, belgilangan shakldagi kvitansiya ma'muriy ishlarni yuritishda hisobga olish elektron hujjati sifatida qayd etilmaganidan kelib chiqib, «E-ma'muriy ish» tizimi ishga tushgandan buyon, aniqlangan huquqbuzarliklarning barchasi tizim orqali ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma rasmiylashtirish orqali amalga oshirilayotganligi haqida to'xtamga kelsa bo'ladi.

«O'zbekiston Respublikasida yilning chorak oyidagi ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar» to'g'risida berilgan statistik ma'lumotlarda javobgarlikka tortilgan shaxslar qaysi moddalarda nazarda tutilgan huquqbuzarliklarni sodir etganliklari ko'rsatilib, moddaning aynan qaysi qismi bo'yicha jazoga tortilganliklari ko'rsatilmaganligi sababli, tahliliy ishlarni amalga oshirishga qiyinchiliklar tug'dirmoqda.

O'zbekiston Respublikasida yilning chorak oyidagi ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar to'g'risidagi ShAKL-1 ma'lumotlar [6] (22-05-2023)

№	Худудлар	Жами илмунрий ҳуқуқбузарликлар содир этган шахслар	Транспорт воситаларидан фойдаланиш қондаларини бузиш 128-модда	Ҳайдовчиларнинг транспорт воситаларини шибдалар бўлишларига эришилши, бўл белдилари ва бўл ларакатининг бошиқ қондаларни талабларига риқет қилмаслиги 128-модда	Подалар ва бўл ларакати бошиқ иштаракчиларини ил бўл ларакати қондаларини бузиш 138-модда	Жамини қойларини алқондал илқулатини илқет қилмаслиги 137-модда	Ўлгини талафотини қондаларини бузиш 211-модда	Паспорт тизимини қондаларини бузиш 223-модда
1	Andijon viloyati	113094	7230	15853	441	4870	1105	11344
2	Buxoro viloyati	65758	7664	10950	428	796	465	3868
3	Jizzax viloyati	33326	3022	3099	134	856	367	5600
4	Navoiy viloyati	43736	3991	9591	186	487	670	3379
5	Namangan viloyati	104347	8619	21408	1394	5942	1530	11531
6	Samarqand viloyati	142434	8487	37997	1285	4511	593	15425
7	Sirdaryo viloyati	35559	1957	3855	76	2047	303	4767
8	Surxondaryo viloyati	76529	9372	16902	1031	975	615	4402
9	Toshkent shahri	190583	23751	30772	6105	9080	876	23596
10	Toshkent viloyati	181378	11135	40452	9850	16079	1190	21722
11	Farg'ona viloyati	150924	17757	20986	2948	10942	782	16299
12	Xorazm viloyati	85422	15484	26393	2136	985	257	3367
13	Qashqadaryo viloyati	114427	20582	28664	1734	1163	1495	5258
14	Qoraqalpog'iston Respublikasi	82517	11352	24835	2795	936	911	1758
15	Transport sohasi	2212	0	0	0	18	0	1
16	Respublika bo'yicha	1422246	150403	291757	30543	59687	11159	132317

O'zbekiston Respublikasida yilning chorak oyidagi ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar to'g'risidagi ShAKL-2 ma'lumotlar [7] (22-05-2023)

№	Маъмурий жавобгарлик түғрисидаги кодекснинг махсус қисмини боблари бўйича	сони
1	Жами ма'мурий жавобгарликка тортилган шахслар	1 422 246
2	Фуқароларнинг ҳуқуқ ва еркинликларига тајовуз қиладиган ҳуқуқбузарликлар учун ма'мурий жавобгарлик (40-51 пр. 1 моддалар)	51 763
3	Сайлов ва референдумни ташкил етиш ҳамда о'тказиш соҳасидаги ҳуқуқбузарликлар учун ма'мурий жавобгарлик (51 пр. 2-51 пр. 9 моддалар)	1
4	Аҳоли сoғ'лиғ'ини сақлаш соҳасидаги ҳуқуқбузарликлар учун ма'мурий жавобгарлик (52-59 пр.1 моддалар)	84 468
5	Мулкка тајовуз қилувчи ҳуқуқбузарликлар учун ма'мурий жавобгарлик (60-64 моддалар)	8 092
6	Экологийа, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва табиатдан фойдаланиш соҳасидаги ҳуқуқбузарликлар учун ма'мурий жавобгарлик (65-96 моддалар)	16 445
7	Саноатдаги, қурилишдаги ва иссиқлик ҳамда электр энергиясидан фойдаланиш соҳасидаги ҳуқуқбузарликлар учун ма'мурий жавобгарлик (97-103 моддалар)	20 961
8	Қишлоқ xo'jaligidagi ҳуқуқбузарлик, ветеринарийа, ветеринарийа-санитарийа қоидалари ва нормаларини бузганлик учун ма'мурий жавобгарлик (104-112 моддалар)	14 621
9	Транспортдаги, yo'l xo'jaligi ва алоқа соҳаларидаги ҳуқуқбузарликлар учун ма'мурий жавобгарлик (113-156 моддалар)	762 499
10	Фуқароларнинг турар joy ҳуқуқларига тааллуқли, коммунал хизмат ва ободонлаштириш соҳасидаги ҳуқуқбузарликлар учун ма'мурий жавобгарлик (157-163 пр.2 моддалар)	20 771
11	Савдо, тадбиркорлик ва мoliya соҳаларидаги ҳуқуқбузарликлар учун ма'мурий жавобгарлик (164-179 пр. 5 моддалар)	97 659
12	Одил судловга тајовуз қилувчи ҳуқуқбузарликлар учун ма'мурий жавобгарлик (180-182 моддалар)	18
13	Жамoат тартибига тајовуз қилувчи ҳуқуқбузарликлар учун ма'мурий жавобгарлик (183-192 пр.1 моддалар)	142 771
14	Бoшқаруvнинг белгиланган тартибига тајовуз қилувчи ҳуқуқбузарликлар учун ма'мурий жавобгарлик (193-241 моддалар)	201 720
15	Тадбиркорлик фаолиятига to'sqinlik қилганлик, qomungа xilofravishda aralashganlik ҳамда xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ҳуқуқлари ва qomuniy manfaatlariga тајовуз қилган бошқа ҳуқуқбузарликлар учун ма'мурий жавобгарлик (241 пр.1-241 пр.11 моддалар)	457
	Изоҳ: Ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlar "Yagona markazlashtirilgan axborot tizimi" ga kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan.	

Shunday bo'lsada, 125, 128, 138, 187, 211 va 223-moddalari bo'yicha javobgarlikka tortilgan **675 866** nafar shaxslar javobgarlikka tortilganliklarini bilgan holda, ularning yarmi - **337 933** nafari ko'rsatilgan moddalarning birinchi qismi bo'yicha javobgarlikka tortilgan, ya'ni ularga joyning o'zida solingan jarimaning miqdori bazaviy hisoblash miqdorining ikkidan bir qismidan oshmagan, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzilmagan deb shartli ravishda qabul qilamiz. Ikkinchi yarmidagi fuqarolar esa o'zi sodir etgan huquqbuzarlik faktiga va solingan jarimaga e'tiroz bildirganliklari uchun MJtKning 279-moddasiga muvofiq bayonnoma tuzilgan deb hisoblaymiz. Yuqoridagi 6ta moddalarning 4tasida – 128, 187, 211 va 223-moddalarda huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan taqdirda uning sanksiyasidagi jarima miqdori ortadi. Demak, 128, 187, 211 va 223-moddalarda nazarda tutilgan huquqbuzarliklarni sodir etgan jami **494 920** nafar fuqarolarning yarmini - **247 460** nafarini yuqoridagi shartga asosan o'zi sodir etgan huquqbuzarlik faktiga va solingan jarimaga e'tiroz bildirganlar tashkil etadi deb hisoblasak, ular xuddi shunday huquqbuzarlikni ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etganlarida, ularga belgilanadigan jarima miqdori ortadi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risidagi [9] qonunning 35-moddasida (O'ziga nisbatan profilaktik hisobga olish yuritiladigan shaxslar) O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 187-moddasida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga nisbatan profilaktik hisobga olinishi lozimligi, 36-moddasida (Shaxsni profilaktik hisobga qo'yish asoslari) vakolatli organning yoki mansabdor shaxsning ma'muriy huquqbuzarlik bo'yicha ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qarori profilaktik hisobga qo'yishga asos bo'lishi belgilangan.

Yuqoridagilardan quyidagi xulosalarni qilsa bo'ladi:

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 283-moddasiga asosan fuqaro o'zi sodir etgan huquqbuzarlik faktiga e'tiroz bildirmasa hamda unga joyning o'zida solinadigan jarimaning miqdori bazaviy hisoblash miqdorining ikkidan bir qismidan oshmasa, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzilmasdan, jarima to'laganligi to'g'risida aybdorga kvitansiya berilishi belgilangan bo'lishiga qaramasdan, "Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida yagona elektron ish yurituv tizimi orqali ma'muriy huquqbuzarlikka oid ishlarni yuritish tartibi haqida nizom"da faqat bayonnoma va jazo qo'llash to'g'risidagi qaror ma'muriy ishlarni yuritishda hisobga olish elektron hujjatlari hisoblangani, kvitansiya hisobga olish elektron hujjati sifatida qayd etilmaganligi oqibatida, bugungi kunda vakolatli organlar va mansabdor shaxslar tomonidan fuqaro o'zi sodir etgan huquqbuzarlik faktiga e'tiroz bildirmagan hamda jarimaning miqdori bazaviy hisoblash miqdorining ikkidan bir qismidan oshmagan hollarda ham bayonnoma tuzilib, jazo qo'llash to'g'risida qaror chiqarib, fuqarolarni jarimaga tortishmoqda.

Bu esa fuqarolarning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarining buzilishiga, ya'ni huquqbuzarlik faktiga e'tiroz bildirmagan fuqarolarga nisbatan ham bayonnoma tuzilib, keyinchalik bir yil davomida bu kabi huquqbuzarlik takror sodir etilgan taqdirda yuqori miqdorda jarima belgilanishga sabab bo'lmoqda.

Bundan tashqari, MJtKning 187-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarlikni sodir etgan hamda huquqbuzarlik faktiga e'tiroz bildirmagan, jarimani joyida to'lagan shaxslarning ham profilaktik hisobga qo'yilishiga zamin yaratilib, 312-moddasiga asosan huquqbuzarga

nisbatan ma'muriy jazo qo'llanish haqida chiqarilgan qarorni shu huquqbuzar ishlab yoki o'qib turgan joydagi ma'muriyat e'tiboriga yetkazish majburiyati yuzaga kelmoqda.

Shu bilan birga, MJtKning 283-moddasida belgilangan - fuqaro o'zi sodir etgan huquqbuzarlik faktiga e'tiroz bildirmasa hamda unga joyning o'zida solinadigan jarimaning miqdori bazaviy hisoblash miqdorining ikkidan bir qismidan oshmagan taqdirda, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzmaslik tartibiga amal qilinmasligi ham vakolatli organlar va mansabdor shaxslarning ish hajmining sun'iy ravishda oshib ketishiga olib keladi.

MJtKning 314-moddasiga asosan fuqarolar tomonidan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida shikoyat berish huquqidan foydalanishi natijasida yuqori turuvchi organning (mansabdor shaxsning) shikoyatlarni ko'rib chiqishga ko'p vaqt ajratishlariga sabab bo'ladi. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzgan organ tomonidan yuqori turuvchi organga (mansabdor shaxsga) yoki jinoyat ishlari bo'yicha tuman sudiga shikoyat berish (315-m.) huquqining yuzaga kelishiga ham olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining [1] 20-moddasida fuqaro va davlat bir-biriga nisbatan o'zaro huquq va majburiyatlar bilan bog'liqligi, insonning huquq va erkinliklarini cheklab qo'yishga hech kim haqli emasligi, insonning huquq va erkinliklari davlat organlari faoliyatining mohiyatini belgilashligi, davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishligi, inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etilishligidan kelib chiqib hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 283-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida belgilangan talablarni amaliyotga joriy etish shuningdek, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishning soddalashtirilgan tartibini takomillashtirish maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

1. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 283-moddasining ikkinchi qismini quyidagi tahrirda bayon etish: "Jarima to'laganligi to'g'risida aybdorga belgilangan shakldagi kvitansiya beriladi va bunday holatda huquqbuzarlikning takroriyliги hisobga olinmaydi";

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 8 iyuldagi 431-son qarori bilan tasdiqlangan "Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida yagona elektron ish yurituv tizimi orqali ma'muriy huquqbuzarlikka oid ishlarni yuritish tartibi haqida nizom"ning 20-bandiga "belgilangan shakldagi kvitansiya ma'muriy ishlarni yuritishda hisobga olish elektron hujjati hisoblanishi" to'g'risida qo'shimcha kiritish;

Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishga vakolati bo'lgan organlarni (mansabdor shaxslarni) jarimani ma'muriy huquqbuzarlik sodir qilingan joyning o'zida undirib olinganda, huquqbuzarga berilishi lozim bo'lgan qat'iy moliyaviy hisobot hujjati hisoblangan belgilangan nusxadagi kvitansiyalar bilan ta'minlash.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan. Elektron manba: <https://lex.uz/ru/docs/-6445145>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-son Farmoni. Elektron manba: <https://lex.uz/ru/docs/5030957>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 3 maydagi 322-son qarori. Elektron manba: <https://lex.uz/ru/docs/3723808>
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 24 iyundagi 407-son qarori. Elektron manba: <https://lex.uz/ru/docs/4872127>
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 8 iyuldagi 431-son qarori. Elektron manba: <https://lex.uz/ru/docs/5500086>
6. O'zbekiston Respublikasida yilning chorak oyidagi ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar to'g'risidagi SHAKL-1 ma'lumotlar (22-05-2023). Elektron manba: <https://data.egov.uz/uzbKr/data/6107bdde2a2e256d868e8686> (Qaralgan sana: 07.06.2023)
7. O'zbekiston Respublikasida yilning chorak oyidagi ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar to'g'risidagi ShAKL-2 ma'lumotlar (22-05-2023). Elektron manba: <https://data.egov.uz/uzbKr/data/6107bda12a2e256d868e8684> (Qaralgan sana: 07.06.2023)
8. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. Elektron manba: <https://lex.uz/ru/docs/97664> (Qaralgan sana: 03.06.2023)
9. O'zbekiston Respublikasining Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risidagi qonuni. Elektron manba: <https://lex.uz/ru/docs/2387357> (Qaralgan sana: 05.06.2023)

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 7 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).